Annotatsiya: Ushbu maqolada korxonalarda ekologik investitsion loyihalarning samaradorligini baholashda mamlakatdagi belgilangan ekologiya va atrof-muhit to‘g‘risidagi qonunchilik normalari talab va shartlariga muvofiqligi, har bir amalga oshiriladigan ekologik investitsion loyihaning matematik aniqlik bilan o‘ylangan iqtisodiy hisob-kitoblarga asoslanishi, nazariy tamoyillar va metodologiyani o‘rganish lozimligi tadqiq qilingan. Bundan tashqari, korxonalarda ekologik investitsion loyihalarning samaradorligini baholash usullarining aniqligi va samaradorligini oshirish uchun sun’iy intellekt va texnologiyalarning ahamiyati tushuntiriladi va loyihaning barcha jihatlarini yetarli darajada tahlil qila oladigan yangi yondashuvlarni ishlab chiqish bilan bir qatorda ilmiy asoslangan taklif va amaliy ahamiyatga ega tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: korxonalarning ekologik barqarorligi, ekologik investitsion loyihalar, ekologik samaradorligini baholash, loyihalarning samaradorligi, baholash usullari, ekologik ta’sir, ekologik nazorat, ekologik yo‘qotishlar, iqtisodiy yo‘qotishlar, ekologik investitsion qarorlar, ekologik ko‘rsatkichlar, loyihaning moliyaviy ko‘rsatkichlari.

Abstract: This article examines the compliance of the established norms of legislation on ecology and the environment in the country with the requirements and conditions in assessing the effectiveness of environmental investment projects at enterprises, the fact that each implemented environmental investment project should be based on economic calculations thought out with mathematical accuracy, study theoretical principles and methodology. In addition, the importance of artificial intelligence and technologies to improve the accuracy and efficiency of methods for assessing the effectiveness of environmental investment projects in enterprises is explained, and along with the development of new approaches that can adequately analyze all aspects of the project, scientifically based proposals and recommendations of practical importance are given.

Key words: environmental sustainability of enterprises, environmental investment projects, environmental performance assessment, project efficiency, assessment methods, environmental impact, environmental control, environmental losses, economic losses, environmental investment decisions, environmental indicators, financial indicators of the project.

Аннотация: В данной статье исследуется соответствие при оценке эффективности экологических инвестиционных проектов на предприятиях требованиям и условиям установленных в стране норм экологического и экологического законодательства, обоснованность каждого реализуемого экологического инвестиционного проекта продуманным экономическим расчетам с математической точностью, необходимость изучения теоретических принципов и методологии. Кроме того, объясняется важность искусственного интеллекта и технологий для повышения точности и эффективности методов оценки эффективности экологических инвестиционных проектов на предприятиях, а также даются научно обоснованные предложения и рекомендации практического значения, а также разработка новых подходов, способных адекватно анализировать все аспекты проекта.

Ключевые слова: экологическая устойчивость предприятий, экологические инвестиционные проекты, оценка экологической эффективности, эффективность проектов, методы оценки, экологическое воздействие, экологический контроль, экологические потери, экономические потери, экологические инвестиционные решения, экологические показатели, финансовые показатели проекта.

## KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizning ekologiya sohasidagi Qonunchilik talablarini kuchaytirish va iqlim o'zgarishi ekologik investitsion loyihalarning samaradorligini baholash usullarini ishlab chiqishni talab qiladi. Korxonalar nafaqat o'z faoliyatidan foyda olishga, balki ekologik investitsion loyihalarni amalga oshirish orqali o'zining faoliyat doirasida ustunlikka ega bo'lishga intilmoqda, shuning uchun ushbu faoliyat sohada amalga oshirilayotgan investitsion loyihalarning samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish zaruriyati to'g'ildi.

Hozirgi kunda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish global masalasaga aylandi. Bu esa dunyoda aholisi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan barcha iqtisodiy faoliyatda ekologiyaga zarar yetkazmaydigan strategiyalarni ishlab chiqishni taqazo qilmoqda. Ushbu strategiyalar xorijiy mamlakatlarda korxonalarning ishlab chiqarish jarayonini yo'lga qo'yishda biznes svetofariga aylandi. Shu munosabat bilan mamlakatimizda korxonalar tomonidan ishlab chiqarish faoliyatining amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan investitsion loyihalarning ekologik jihatlarini chuquq ilmiy tahlil qilinib, ular tomonidan qabul qilinadigan barcha qarorlar "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonunda keltirilgan talab va shartlarga muvofiqligi tahlil qilinishi zarur [1]. Chunki ekoligik jihatdan samarasiz natija ko'rsatishi mumkin bo'lgan investitsion loyihalardan katta yo'qotishlarni oldini olish maqsadida investorlar tomonidan tekshirib ko'riladi.

Ekologik investitsiyalar bilan bog'liq qarorlarning noto'g'ri qabul qilinishi ekologiyaga, xususan, kelajakda aholining sog'ligiga juda ham jiddiy salbiy ta'sir qiladi. Shuning uchun korxonalarda qabul qilinadigan har bir investitsion qaror ekologik jihatdan tekshirilib, to'g'ri amalga oshiriladigan matematik aniqlik bilan o'ylangan iqtisodiy hisob-kitoblarga asoslanishi kerak [2]. Bu esa ekologik investitsion loyihalarning samaradorligini baholash usullarini to'g'ri tanlab qo'llashni talab qiladi.

Shu sababli, davlatimiz rahbarining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "O'zbekisotn – 2030 strategiyasi"da keltirilgan "... ekologiyani yanada rivojlantirish borasidagi investitsion loyihalarni amalga oshirish" masalasi ustuvor chora-tadbirlardan biri sifatida belgilangan [3].

Investitsion loyihalar nazariyasi hamda amaliyoti ekologik investitsion qarorlarni qabul qilishda doimiy foydalaniladigan samaradorlikni baholashning universal usullari mavjud emas. Shuning uchun amalda barqaror rivojlanishni ta'minlash va atrof – muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirish zarurligini hisobga olgan holda investitsion loyihalarning iqtisodiy va ekologik samaradorligini baholashning nazariy tamoyillari va metodologiyasini o'rganish va asoslash lozim.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsion loyihalarni amalga oshirish yoki qo'llash maboynida atrof-muhitga yetkazilgan zararlar turli yo'nalishlarda, turli darajada bo'lishini, ularni amalga oshirishning salbiy natijasi kichik hududlarga qaraganda ancha katta hududlarni qamrab olishini, bunday loyihalarga tartibga soluvchi organlar e'tiborini kuchaytirish kerakligi, shuningdek, ekologik hamda atrof-muhitga ta'sirni har tomonlama chuqur o'rganib, ushbu ekologik investitsiom loyihalarning samaradorligini baholash usullari, yo'llari, mexanizmlari hamda ekologik zararni kamaytirish bo'yicha harakatlar rejasi ko'plab xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Xususan, E.Laniado, S.Vaghi, E.Amodeo, A.Capriolo va R.Mascololarning "Ekologik loyihalar samaradorligini baholash uchun model" nomli maqolasida mahalliy ma'muriyatlar tomonidan amalga oshirilgan ekologik loyihalar natijalarini davlat mablag'lari bilan baholash va taqqoslash uchun uslubiy model keltirilgan [4].

M.Barun, H.Valter va S.Koversun kabi ilmiy tadqiqotchilarning "Ekologik loyihalarga investitsiyalar ta'sirini har tomonlama baholash" deb ataladigan asarida ekologik loyihalarni amalga oshirish oqibatlari, ekologik yo'naltirilgan investitsion loyihalarining eng muhim xususiyatlari tahlil qilinadi va iqtisodiy komponent uchun diskontlash omili va ekologik qism uchun o'sish omilini qo'llashda turli davrlarning ta'siri aks ettiriladi [5].

Rossiyalik iqtisodchi tadqiqotchilardan N.A.Zaxarovning fikriga ko'ra, zamonaviy sharoitda ekologik investitsion loyihalari qiymatini baholashning nazariy va uslubiy asoslarini tahlil qilib, bunday loyihalarning global o'zgarishlar sharoitida, xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy samaradorlikka erishishdan tashqari, ijtimoiy-ekologik xarakterdagi muammolarni hal qilishlari kerakligini ta'kidladi [6].

Shuningdek, O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.R.Yaxshimuratova o'zining ilmiy asarlarida ekologik noxush bo'lgan hududlarga inestitsiyalarni ko'proq jalb qilish va bunda mavjud muammolarni bartaraf etish to'g'risida xorijiy mamlakatlar, jumladan, Rossiya va Qozog'iston respublikalari tajribalari o'rganilgan. Xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan chora-tadbirlar bo'yicha ilmiy asosga ega xulosa va takliflar ishlab chiqilgan [7].

## MATERIALLAR VA METODLAR

Ushbu maqolaning ilmiy-nazariy asosi sifatida ilmiy iqtisodiy adabiyotlar hamda maqolalar, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ekologik investitsiya faoliyati, korxonalarda ekologik investitsion loyihalarning samaradorligini baholashh va ulardan samarali foydalanish bo'yicha izlanishlari, ularning ilmiy nazariy fikrlarini o'rganish va muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali ilmiy asoslangan xulosa, amaliy ahamiyatga ega taklif va tavsiyalar berilgan. Tadqiqot mavzusini o'rganish jarayonida iqtisodiy, qiyosiy tahlil, tizimli tahlil, induksiya, deduksiya, analiz, sintez, abstraksiya va boshqa ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda iqlim o'zgarishi dinamikasi tobora kuchayib borishi natijasida global miqyosda keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik salbiy oqibatlarning vujudga kelmoqda. O'zgarishlarning barqaror davom etishi fonida davlatlarning barchasida ekologik vaziyatni nazorat qilish va tartibga solishga qaratilgan qonun hujjatlarini yaratish va joriy etishni faollashtirilmoqda.

Bunday sharoitda korxonalar o'zlarining iqtisodiy samaradorligini saqlab qolishga, rivojlanayotgan yangi ekologik va tartibga solish muhitga moslashishga harakat qilmoqda. Iqtisodiy foyda olish bilan birga oshib borayotgan ekologik cheklovlar va standartlarga rioya qilish strategiyasini o'ziga birlashtirgan ekologik investitsion loyihalarni amalga oshirishni mazkur muammoni hal qilishning yo'llaridan biri sifatida e'tirof etishimiz mumkin. Ular esa nafaqat korporativ ijtimoiy javobgarlikning tarkibiy qismi, balki korxonalarning ekologik barqarorligi hamda iqtisodiy progressivligini ta'minlashning samarali mexanizmiga aylana oladi.

Shu sababdan, ekologik investitsion loyihalarning o'ziga xos xususiyatlari, xatarlari va potentsial daromadlarini hisobga olgan holda ularni tahlil qilish va baholash ilmiy qiziqishning tobora dolzarb mavzusiga aylanib bormoqda. Ushbu dunyo tartibining o'zgarishi sharoitida iqtisodiy va ekologik tarkibiy qismlarni hisobga olgan holda investitsion qarorlarni qabul qilish jarayonlarini optimallashtiradigan yangi yondashuvlar va usullarni ishlab chiqish muhim bo'lib bormoqda.Yuqorida aytilgan iqtisodiy fikrlarga asoslanib, ekologik investitsion loyihalarni amalga oshirish va baholash mexanizmlarini o'rganish va optimallashtirish nafaqat dolzarb, balki ijtimoiy ahamiyatga ega vazifaga aylanmoqda.

Ekologik investitsion loyiha – bu aniq ekologik tarkibiy qismga ega bo'lgan tashabbuslarni amalga oshirishga yo'naltirilgan va barqaror va qulay kologik natijalarga erishishga qaratilgan, shu bilan birga iqtisodiy foyda keltiradigan investitsion loyihaning ixtisoslashgan turi hisoblanadi. Ekologik investitsion loyiha va boshqa turdagi investitsion loyihalar o'rtasidagi asosiy farq shundaki, birinchisi atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanishni rag'batlantirishga qaratilgan strategiya va amaliyotlarni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar va rentabellik, balki ekologik muhit va jamiyatga ta'sir qilish darajasi ekologik investitsion loyihalarning muvaffaqiyatini baholashning asosiy parametri hisoblanadi.

Ushbu loyihalarni qanday baholashni tushunishimiz uchun ekologik investitsion loyihalarni aniqlash muammolarini biz baholash obyekti sifatida olamiz. Iqtisodiy ilmiy adabiyotlarni o'rganish natijasida quyidagi muammolar aniqlandi (1-rasm):




1-rasm. Baholash obyekti sifatida ekologik investitsion loyihalarni aniqlash muammolari[1]

1 Tadqiqot natijalariga muvofiq muallif tomonidan shakllantirilgan.

Birinchi muammo ushbu loyihalarning samaradorligini baholashning kompleks xususiyatiga kirganligi sababli loyihalarning iqtisodiy va ekologik samaradorligini aniqlash bir vaqtning o'zida loyihaning moliyaviy ko'rsatkichlari bilan ekologik hissasini hisobga oladigan ko'p o'lchovli baholash usullarini ishlab chiqish va amalga oshirish zaruriyati paydo bo'ladi. Shuning uchun ham o'z mohiyatiga ko'ra, bu muammo ma'lum bir loyihaning ekologiyasiga qo'shgan hissasi bilan iqtisodiy samaradorligi orasidagi muvozanatni topishdan iborat [8].

Ikkinchi muammo esa ko'proq noaniqlik omillariga bog'liq muvozanatni topish sanaladi. Keyingi ekologik sharoitlar noma'lum bo'lgan sharoitda xavflarni hisobga olish investitsion loyihani amalga oshirish joyiga qarab qiyinlashadi. Shunday qilib, zilzilaga chidamli hududlarda mumkin bo'lgan ekologik xavflarni ma'lum darajada taxmin qilib hisoblash mumkin bo'lsa ham, lekin ularning darajasi aniq hisob-kitoblarga mos kelmaydi.

Korxonalarda ekologik investitsion loyihalarni baholash va amalga oshirish nuqtai nazaridan standartlashtirishning yetishmasligi natijasida ekologiyaga ta'siri avtomatik ravishda davlat atrof-muhit zararidan himoya qilishni o'z zimmasiga olgan jamiyatga o'tganligi sababli, bozor iqtisodiyoti ishtirokchilari loyihalarni baholash metodologiyasini o'zlari yaratish huquqiga ega bo'lishiga qaramay, ekologiya omili baholashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ekologik investitsion loyihalarni baholashda ommaviy xarakter ham qo'yilganligi uchun ushbu sohadagi standartlashtirish bunday loyihalarning ekologik samaradorligini tushunish bilan bog'liq muammolarni ma'lum bir tarzda hal qilishga imkon beradi.

Ushbu loyihalarni amalga oshirishda korxonalar samaradorligini baholash uchun namuna sifatida xalqaro tashkilotlarning hujjatlaridan foydalanish mumkin. Masalan, Jahon bankining ijtimoiy-ekologik standartlarida ma'lumotlarni to'liq topish mumkin. ular nafaqat korxona yoki loyihadagi ijtimoiy sharoitlar darajasini baholash uchun standartlarni taklif qiladi, balki atrof-muhit xatarlari va iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish holatini ham baholaydi [9].

Hozirgi kunda keng tarqalgan ekologik investitsion loyihalarning samaradorligini baholashning quyidagi bevosita usullarini ko'rib chiqamiz:

Ulardan birinchisi tarmoqni rejalashtirish va loyihalarni boshqarish usuli (PERT/CPM) bo'lib, u murakkab va ko'p bosqichli loyihalarda boshqaruvni optimallashtirish uchun, ayniqsa, turli bosqichlar va faoliyatni muvofiqlashtirish muhim bo'lgan ekologik investitsion loyihalarni amalga oshirishda qo'llaniladi. Ushbu usul doirasida tuzilgan tarmoq jadvallari tadqiqotchilar va amaliyotchilarga loyihaning muhim yo'llarini aniqlash va individual faoliyatdagi kechikishlar loyihaning umumiy jadvaliga qanday ta'sir qilishini aniqlash imkonini beradi. Ekologiya nuqtai nazaridan PERT/CPM ekologik xavf va noaniqliklarni hisobga olish va barqarorlik maqsadlarini birlashtirish uchun moslashtirilishi mumkin. Shu bilan birga loyihaning samaradorligi, qiymati va ekologik ta'sirini minimallashtirish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi. Ushbu usul menejerlarga loyihaning ekologik va ijtimoiy javobgarligini saqlab, jarayonlarni ongli ravishda tashkil qilish imkoniyatini beradi.

Ekologik investitsion loyihalarni baholashga moslashtirilishi mumkin bo'lgan yana bir usul – bu hayot siklini baholash usuli (LCA) bo'lib, mahsulot yoki loyihaning har bir bosqichida uning yakuniy bahosini aniqlash uchun uning ekologik ta'sirini chuqur tahlil qilish mumkin. LCA baholash usulini qo'llash orqali tadqiqotchilar va amaliyotchilar ekologik ta'sirni oshirishning asosiy nuqtalarini aniqlashlari va ularni minimallashtirish choralarini ko'rishlari mumkin. Masalan, biologik parchalanadigan plastik qoplarni ishlab chiqarish loyihasida LCA baholash usuli har bir bosqichda bioplastiklar uchun o'simliklarni yetishtirishdan tortib, ishlab chiqarish va foydalanish jarayoni orqali iste'mol qilish va parchalanishgacha baholashni ta'minlashi mumkin. Ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan ekologik ko'rsatkichlarga issiqxona gazi chiqindilari, suv va energiya iste'moli, biologik xilma-xillik va ekotizimlarga ta'siri va loyihaning butun hayoti davomida ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirlari kiradi [10].

Shuning uchun, ushbu usul ekologik investitsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan ekologiyaga potentsial ta'sirini har tomonlama tahlil qiladi. Barqaror rivojlanish sharoitida strategik rejalashtirish va loyihalarni boshqarish uchun ilmiy asos yaratadi. Shu munosabat bilan, loyihani baholashda siklik omillar va yuzaga keladigan xatarlar to'liq hisobga olinishi mumkin.

Shuningdek, investitsion qarorlarning obyektiv asoslanishini ta'minlash uchun loyihaning ishlash mezonlari, masalan sof joriy qiymat (NPV), diskontlashni hisobga olgan holda ekologik investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini diskontlashning qoplash muddati (DPP) va diskontlash foydasining ichki me'yori (IRR), pul oqimlari noaniq shaklda tavsiflanadi deb taxmin qilish kerak. Bundan tashqari, muallifning ta'kidlashicha, eng keng qamrovli tahlilni ta'minlash uchun noaniqlik va o'zgaruvchanlik sharoitida investitsion qarorlarni oqilona qabul qilishni ta'minlash uchun samaradorlik ko'rsatkichlari ikki xil ya'ni aniq va noaniq shaklda taqdim etilishi kerak.

Yuqorida o'rganilgan tadqiqotlar natijasida sof joriy qiymatni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanishni taklif qilamiz:

$$NPV = \sum_{t=1}^{n} \frac{CF_t}{(1+k)^t} - I_0$$

bunda, NPV – sof joriy qiymat, n – daromad olinuvchi davrlar soni, k – dikontlash stavkasi, $CF_t$ – t oxiriga kelib, tushgan pul oqimi, $I_0$ – boshlang'ich investitsiyalar, t – investitsion loyihalarni amalga oshirishdan olingan daromadlarning davri [11].

Ushbu formula bizga xarajatlarning umumiy ko'rsatkichini aniqlashga imkon berishiga qaramay, IRR va DPP ko'rsatkichlarini emas, balki investitsion loyihaning kerakli yakuniy qiymatini to'g'rilash va olib tashlash uchun iqtisodiy va ekologik yo'qotishlarni hisobga olish zarurligiga ham e'tibor berildi.

Shunday qilib, qiymatni baholashning ushbu usullaridan foydalanganda qanday muammolar bo'lishi mumkinligiga e'tibor qarataylik. Hayot siklini baholash usuli (LCA) loyihaning va uning tizimlarini amalga oshirishning barcha bosqichlarida ekologik ta'sirini tahlil qilish uchun samarali vosita bo'lsa-da, uni qo'llashda natijalar va xulosalarning o'zgaruvchanligiga olib kelishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarning noaniqligi va o'zgaruvchanligi bilan bog'liq qiyinchiliklar mavjud. Bundan tashqari, ushbu yondashuvga ko'ra, ayniqsa keng qamrovli loyihalar uchun ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish uchun katta resurs hamda ko'p vaqt talab qilishi mumkin.

Tarmoqni rejalashtirish va loyihalarni boshqarish usuli (PERT/CPM) ham amalda muammo va qiyinchiliklardan xoli emas. Agar u tanqidiy yo'llarni aniqlash va butun loyiha bo'yicha batafsil izoh berish qobiliyatiga ega bo'lsa, uni qo'llashda ayniqsa yuqori noaniqlik va atrof-muhitning o'zgarishida loyihaning individual bosqichlarining davomiyligini aniq hisoblash va turli kechikishlar va xavflarning ta'sirini bashorat qilish qiyin bo'lishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot ishi ekologik investitsion loyihani aniqlash muammolarini baholash obyekti sifatida, shuningdek, baholash usullarining kuchli va zaif tomonlarini ko'rsatishga qaratilgan. Shunday qilib, ilmiy izlanishlar natijasida ekologik investitsion loyihalarning samaradorligini baholashning murakkabligi, xavflarni hisobga olish holati, loyiha muddatlarining noaniqligi, tartibga solish doirasi va standartlashtirishning yo'qligi kabi bir qator muammolarni aniqlandi.

Asosan, tadqiqot davomida hayotiy siklni baholash usuli (LCA) va tarmoqni rejalashtirish va loyihalarni boshqarish usuli (PERT/CPM) o'rganildi. Ma'lumotlar noaniqligi va LCA uchun resurs talablari bilan bog'liq cheklovlar, shuningdek, PERT/CPM baholash usulini noaniqlik va xavfni hisobga olish bilan bog'liq muammolar korxonalarda ekologik investitsion loyihalarning samaradorligini baholash jarayonini takomillashtirish uchun yangi texnologiyalar va metodologiyalarni birlashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni shakllantirishga olib keldi.

Xususan, qo'yilgan cheklovlarni minimallashtirish, tahlil usullarining aniqligi va samaradorligini oshirish uchun sun'iy intellekt va texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Bugungi kunda ekologik va investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonlarining o'zgaruvchanligi ilmiy tadqiqotchilar va amaliyotchilardan ekologik investitsion loyihalarning murakkab va ko'p qirrali jihatlarini yetarli darajada tahlil qila oladigan yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi. An'anaviy baholash usullari va innovatsion texnologik yechimlarning uyg'unligi ushbu sohadagi bilim va vositalarni kengaytirish uchun barqaror iqtisodiy rivojlanishning keng imkoniyatlarini taqdim etadi.

Xulosa qilib aytganda, ilg'or texnologiyalarni qo'llash va uslubiy yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish orqali korxonalarda ekologik investitsion loyihalarning samaradorligini baholash usullarini moslashtirish va optimallashtirish barqaror rivojlanish bilan bog'liq ekologik va ijtimoiy masalalarni to'liq qamrab oluvchi investitsion loyihalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 27.12.2013 yildagi "Ekologik nazorat to'g'risida"gi O'RQ-363-son Qonuni.
2. Ulashov A.R. Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholashni amalga oshirish mexanizmi. – T.: "Moliya" ilmiy jurnali. 2024. № 4. 130-139 betlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
4. Laniado, E., Vaghi, S., Amodeo, E., Capriolo, A., & Mascolo, R. (2013). A model to evaluate the effectiveness of environmental projects.–*WIT Transactions on Ecology and the Environment*,–*179*, 755-765.

5. M.Barun, H.Valter and S.Koversun. (2023). Comprehensive assessment of the impact of investments on environmental projects. International scientific journal «Grail of Science» № 31. pp 212-215.
6. Н.А.Захаров. (2023). Анализ и адаптация методов оценки экологических инвестиционных проектов. Вестник Евразийской науки The Eurasian Scientific Journal. 2023, Том 15, № s3. ISSN 2588-0101. https://esj.today/
7. Yaxshimuratova, A. (2024). EKOLOGIK MUAMMOLI HUDUDLARGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH BO 'YICHA XORIJ TAJRIBASI.–*Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*,–*2*(5), 352-360.
8. Лавриненко П.А. Анализ инвестиционной привлекательности проектов в экологической сфере / П.А. Лавриненко // Проблемы прогнозирования. – 2013. – № 5(140). – С. 137–143. – EDN RWFZMX.
9. Саматова А.И. Экологическая ответственность российских компаний / А.И. Саматова, Т.В. Лесина // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. – № 3. – С. 105–111. – EDN ZIBXLB.
10. Качура И.С. Нарастающая тенденция применения и важность реализации концепции экологического, социального и корпоративного управления (esg) / И.С. Качура // Молодой исследователь Дона. – 2022. – № 1(34). – С. 81–84. – EDN PMWRNU.
11. Ulashov A.R. Investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash usullari tahlili. “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. – T.: 2024. ISNN: 2181-3965. Volume 6. № 1. 294-307 betlar.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

## 2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.


Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.


El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07


Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.


““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz